

Namangan Viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Oʻzbekiston Respublikasi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 3 375,5 mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 2 860,1 mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – 495,2 mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – 20,1 mlrd soʻmni tashkil qildi.

Namangan viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼati



II. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Namangan sh. (640,6 mlrd soʻm), Toʻraqoʻrgʻon (321,1 mlrd soʻm), Namangan t (309,2 mlrd soʻm), Chust (297,2 mlrd soʻm), Uychi (290,8 mlrd soʻm) va Yangiqoʻrgʻon (258,0 mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mingbuloq tumani (167,1 mlrd soʻm), Norin tumani (208,4 mlrd soʻm) va Kosonsoy tumanini (212,0 mlrd soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Namangan Viloyati	3 375,5	104,0
Namangan sh.	640,6	102,3
Mingbuloq	167,1	102,4
Kosonsoy	212,0	112,0
Namangan	309,2	103,4
Norin	208,4	103,8
Pop	229,4	104,5
To'raqo'rg'on	321,1	105,0
Uychi	290,8	105,0
Uchqo'rg'on	205,4	104,4
Chortoq	236,3	102,6
Chust	297,2	103,2
Yangiqo'rg'on	258,0	102,3

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy (112,0 %), To'raqo'rg'on (105,0 %), Uychi (105,0 %), Pop (104,5 %) va Uchqo'rg'on (104,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Yangiqo'rg'on (102,3 %), Namangan sh. (102,3 %), Chortoq (102,6 %), Namangan t (103,4 %) va Chust (103,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 809,4 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 164,5 mlrd so'mni (103,2 %), chorvachilik mahsulotlari 2644,8 mlrd so'mni (104,0 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Namangan sh. (500,0 mlrd so'm), To'raqo'rg'on (285,4 mlrd so'm), Namangan t (259,0 mlrd so'm) va Uychi (257,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mingbuloq tumani (121,5 mlrd so'm), Uchqo'rg'on tumanini (164,2 mlrd so'm) va Kosonsoy tumanini (183,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy (113,9 %), Uychi (105,2 %), To'raqo'rg'on (104,8 %) va Uchqo'rg'on (104,8 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiqo'rg'on (102,1 %), Namangan sh. (102,1 %) va Mingbuloq (102,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 85,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,0 % i fermer xo'jaliklariga, 4,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Namangan sh. (497,5 mlrd so'm), To'raqo'rg'on (270,1 mlrd so'm), Uychi (249,1 mlrd so'm), Chust (246,6 mlrd so'm) va Namangan t (225,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mingbuloq tumani (111,4 mlrd so'm), Norin tumani (136, mlrd so'm) va Uchqo'rg'on tumanini (149,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy (114,4 %), Uychi (105,3 %), Uchqo'rg'on (104,0 %), To'raqo'rg'on (104,0 %) tumanlarida qayd etildi. Mingbuloq (102,0 %), Namangan t (102,1 %), Namangan sh. (102,3 %) va Chortoq (102,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 31 334,0 tonna go'sht, 128 402,0 tonna sut, 152 413,0 ming dona tuxum, 315,0 tonna qirqib olingan jun, va 1 090,3 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, sog'ib olingan sut – 103,4 % ni, olingan tuxum – 121,1 % ni, qirqib olingan jun – 104,0 % ni, hamda ovlangan baliqlar – 110,9 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 5,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 85,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 6,2 % i fermer xo'jaliklari, 92,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), tonna	31 334	102,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 777	100,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	26 625	103,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 932	100,3
Sut, tonna	128 402	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7 983	131,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	118 891	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 528	202,7
Tuxum, ming. dona	152 413	121,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	56 341	86,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	30 702	90,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	65 370	243,3
Jun, tonna	315	104,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	26	113,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	289	103,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-
Baliq, tonna	1 090	110,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	596	121,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	17	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	478	100,3

Shu bilan birga, olingan tuxumning 37,0 % i fermer xo'jaliklariga, 20,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 42,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 8,3 % i fermer xo'jaliklari, 91,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 54,6 % i fermer xo'jaliklariga, 1,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 43,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Namangan Vilyati	31 334	128 402	152 413
Namangan sh.	7 200	10 221	3 452
Mingbuloq	1 322	7 135	6 686
Kosonsoy	1 972	7 891	31 266
Namangan	2 834	9 589	36 555
Norin	1 643	6 250	4 392
Pop	1 811	11 164	5 184
To'raqo'rg'on	2 828	15 075	16 549
Uychi	3 256	9 504	32 687
Uchqo'rg'on	1 949	9 075	2 165
Chortoq	2 335	10 679	4 061
Chust	2 031	20 728	4 544
Yangiqo'rg'on	2 153	11 090	4 871

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Namangan t (33,6 mlrd so'm), Yangiqo'rg'on (27,9 mlrd so'm), To'raqo'rg'on (15,4 mlrd so'm), Pop (15,3 mlrd so'm) va Chortoq (14,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Namangan sh. (2,3 mlrd so'm), Kosonsoy tumanini (4,4 mlrd so'm) va Uychi tumanini (8,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Chust (144,5 %), To'raqo'rg'on (141,0 %), Chortoq (126,3 %), Mingbuloq (116,0 %) va Uchqo'rg'on (106,4 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiqo'rg'on (62,8 %), Kosonsoy (82,5 %), Namangan t (102,7 %) va Uychi (102,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan Vilyati	2 492	105,5
Namangan sh.	112	105,8
Mingbuloq	36	116,0
Kosonsoy	51	82,5
Namangan	1 202	102,7
Norin	277	103,9
Pop	156	103,9
To'raqo'rg'on	156	141,0
Uychi	121	102,3
Uchqo'rg'on	162	106,4
Chortoq	56	126,3
Chust	122	144,5
Yangiqo'rg'on	40	62,8

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Namangan tumani (48,3 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Norin (11,1 %), Uchqo'rg'on (6,5 %), Pop (6,3 %), To'raqo'rg'on (6,3 %) va Chust (4,9 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Mingbuloq (1,4 %), Yangiqo'rg'on (1,6 %) va Kosonsoy tumanida (2,0 %) kuzatildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 790 152 boshga yetdi, (2024-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 1,4 % ga ko'p), sigirlar 258 472 boshga (2,0 % ga ko'p), qo'y va echkilar 856 934 boshga (1,6 % ga ko'p), parrandalar 6 811 848 boshga (2,5 % ga ko'p) yetdi.

**2025-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	790 152	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	48 666	99,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	730 711	101,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10 775	111,7
shundan sigirlar	258 472	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23 015	101,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	231 403	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4 054	111,6
Qo'y va echkilar	856 934	101,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	66 845	110,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	784 551	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5 538	88,3
Otlar	7 243	100,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 053	114,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	6 156	98,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	34	113,3
Parrandalar	6 811 848	102,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 202 447	87,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 025 279	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 584 122	120,8

2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,9 % i fermer xo'jaliklariga, 89,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,8 % i fermer xo'jaliklariga, 91,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 32,3 % i fermer xo'jaliklariga, 29,7 % i dehqon va

tomorqa xo'jaliklariga, 37,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025-yilning 1-aprel holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Namangan Vilyati	790 152	856 934	6 811 848
Namangan sh.	75 192	122 206	326 064
Mingbuloq	54 502	30 817	364 671
Kosonsoy	58 004	62 652	1 142 411
Namangan	54 491	38 896	1 054 386
Norin	49 833	47 037	189 188
Pop	71 985	121 381	280 055
To'raqo'rg'on	73 098	61 656	897 749
Uychi	56 095	45 933	1 099 973
Uchqo'rg'on	73 229	45 340	695 192
Chortoq	67 909	60 683	228 293
Chust	85 372	140 401	221 044
Yangiqo'rg'on	70 442	79 932	312 822

**V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha
uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.



Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijaraga (ikkilamchi ijaraga) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
D. Muborakov
69 227-84-82 (5110)

Manzil:
160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.
